



O'QITUVCHILARNI ZAMONAVIY DASTURLAR ASOSIDA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI OMMALASHTIRISH

Allambergenov A.A.

Nukus davlat pedagogika instituti akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: taʼlim, taʼlim vositalari, tarbiya, tajriba, metodika, oliy taʼlim.

Ключевые слова: образование, образовательные инструменты, подготовка, опыт, методи-ка, высшее образование.

Key words: education, educational tools, training, experience, methodology, higher education.

Kirish. Jahon taʼlim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari axborotlashgan jamiyatda oʻqitishning zamo-naviy dasturiy vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini koʻrsatmoqda. Yevropa mamlakatlariga xos global taʼlim muhitini shakllantirishga ilmiy yondashuvlar kontekstidagi “megatendensiyalar” koʻrsatadiki, taʼlimning uzluksizligi va amaliy yoʻnalganligini taʼminlash, mustaqil taʼlim olish, ijodiy rivojlanishga yoʻnaltirish, oʻqitishning yangi formatlarini faol rivojlantirishda zamonaviy dasturiy vositalarni yaratish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qoʻyiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan taʼlim yoʻnalishi boʻyicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiytexnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qoʻshishga qodir, jadal ilgarilanyotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va maʼnaviy-axloqiy sifatlarga ega boʻlgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Kadrlar tayyorlashda yanada yuqori natijalarga erishish uchun taʼlimning yakuniy maqsadlarini adekvat anglash, uni takomillashtirish va mazmunan zamonaviylashtirish, ayniqsa, oʻqitishning interfaol metodlari va zamonaviy dasturiy vositalarini, supertyutorlar (mashq qildiruvchi dasturlar),

kasbiy tyutorlar (kasbiy faoliyaga oid dasturlar asosida yaratilgan o'quv materiallari) shaklidagi o'rgatuvchi kompyuter dasturlarini qo'llash va rivojlantirish borasida keng qamrovli maqsadli ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning dasturiy-metodik ta'minoti, o'qituvchilarni tayyorlashning milliy va jahon ta'lim tajribasiga asoslangan tashkiliy pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensialini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga 1 muvofiq "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" bugungi kunda muhim vazifalar hisoblanadi. Jumladan, kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi zamonaviy dasturiy vositalarni o'qitishning bosqichli (fazali) modeli asosida qo'llash (imprinting - o'quv materialini mazmunini idrok qilish; meorayzing - eslab qolish; avtorizatsiya - o'quv materialini mazmunini anglash va uni qayta tiklash; initsiatsiya-o'zlashtirilgan bilimlarni baholash va e'tirof etish fazalari); kasbiy kompetensiyalarni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari vositasida shakllantirishning yangi modellarini ishlab chiqish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish; o'qituvchilarni ijodiy va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirishda, umuminsoniy va ta'limiy qadriyatlarining mohiyatini ochib berishda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'qitishning dasturiy vositalarini qo'llash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator xorijiy, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan:

- √ o'qitishning an'anaviy va zamonaviy dasturiy vositalari asosida talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyasi ishlab chiqilgan (Chicago university, Amerika);
- √ idrok qilishning vizual va audio vositalari orqali ta'lim oluvchilarning kasbiy shakllanishiga maqsadli kompleks ta'sir ko'rsatish metodikasi ishlab chiqilgan (Institute named after Frica Bauer, Germaniya);
- √ o'qitishning zamonaviy texnologiyalari (tyutorlik tizimi, ixtisoslashtirilgan ta'lim, modulli o'qitish, brigada-individual o'qitish, o'zaro o'qitish yoki



- o‘zaro maslahat) asosida o‘qituvchilarni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi yaratilgan (National Advice on pedagogical technology, Angliya);
- √ mobil elektron kurilmalar bazasida elektron ta’lim resurslarini yaratish va amaliyotga joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan (Seoul Cyber University, Janubiy Koreya);
 - √ o‘qituvchilarda loyihalashtirish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga oid ta’limning yangi texnologiyalari ishlab chiqilgan (Pedagogik texnologiyalar markazi, Rossiya) [5];
 - √ kasb ta’limi o‘qituvchilarini masofadan o‘qitishning axborot ta’lim muhitini yaratishning nazariy-metodik va tashkiliy-pedagogik asoslari o‘quvmetodik va axborot ta’minotini mustahamlash asosida takomillashtirilgan (O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti, O‘zbekiston).

Bugungi kunda jahonda ta’limning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi yo‘nalishlarda ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda: o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha konseptual loyihalashtirishga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositasi tuzilmasi bloklari mazmunini takomillashtirish; o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositalaridan foydalanib ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish; o‘qitishning kompyuter vositalarini yaratish nazariyasi va texnologiyasini yangi ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish; zamonaviy dasturiy o‘qitish vositalarining ta’limjarayoni sifatiga ta’sirini baholash metodikasini ishlab chiqish; o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositalari asosida o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish; o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanishning dasturiy-metodik ta’minotini yaratish.

Jahon ta’lim tizimida axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni jadalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’limni axborotlashtirish jarayoni, shuhbasiz, vatanimiz kelajagini ta’minlovchi yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kasbiy faoliyati jarayonida foydalanish kompetentligiga uzviy bog‘liqdir. Bu esa o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. O‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash muammosi bo‘yicha xorijiy mamlakatlar va vatanimiz olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.



Oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi jarayonida texnik, texnologik va ixtisoslik fanlarini o'qitish, mavjud pedagogik dasturiy vositalar va pedagogik amaliyot holatini tahlil etish natijalari qator nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatdi: Jumladan: jamiyatning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, o'qitish-ning zamonaviy dasturiy vositalarini o'quv jarayonida qo'llay oladigan yuqori malakali kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga ijtimoiy buyurtmasi va o'quv jarayonida foydalanishga oid didaktik, o'quv-metodik ta'minotning yetarli emasligi o'rtasida; an'anaviy ta'lim metodikasi va vositalari asosida o'qitish bilan mutaxassisning axborot madaniyati, kasbiy ko'nikmalari va bilimlari darajasiga zamonaviy talablar o'rtasida; oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi yo'nalishlarida texnik, texnologik, umumkasbiy tayyorgarlik va ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalariga ehtiyoj bilan bunday vositalarning yetarli emasligi o'rtasida. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etish va takomillashtirish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo'llashning psixologikpedagogik va didaktik imkoniyatlari, metodikasi, ilmiy asoslari to'liq ochib berilmagan, ularni takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, o'qituvchilarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Tadqiqotning vazifalari: psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil etish asosida oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo'llash muammosi holatini o'rganish; kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi asoslari va tamoyillarini, ularning umumiy tuzilmasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish va ularda metodik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari va umumkasbiy fanlarining pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etish; umumkasbiy fanlarini o'qitishda talabalarning kasbiy tayyorgarligini faollashtirishga imkon beruvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish va qo'llash; o'qituvchilarda modellashtiruvchi, o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish malakalarining rivojlanishini aniqlash mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish; o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash modeli va texnologiyasini ishlab chiqish, qo'llash hamda ularning samaradorligini tajribada aniqlash.

Natijalar. Shunday qilib tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat bo'ldi:



- ▶ ta'lim jarayoni komponentlari uzviyligini xorijiy tarjibalar asosida o'qituvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda zamonaviy o'qitish vositalarining o'quv materialini differensial taqdim etish;
- ▶ o'quv materialini ta'lim oluvchilar tayyorgarligi darajasiga qarab taqdim etish;
- ▶ baholash, boshqarish, turli shaklda nazorat qilish;
- ▶ interfaol muloqotni amalga oshirish) dasturiy imkoniyatlari aniqlangan;
- ▶ o'qituvchilarni axborot-texnologik tayyorlash jarayonida ilmiy-pedagogik yondashuvlarga asoslangan holda o'qitishning zamonaviy dasturiy vositalarini yaratish va qo'llashning metodik tizimi ishlab chiqilgan;
- ▶ kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash algoritmini takomillashtirish asosida umumkasbiy fanlar bo'yicha o'quv axborotini ko'rgazmali-obrazli, izchil-mantiqiy tarzda havola etishni texnologiyalash- tirish metodi ishlab chiqilgan;
- ▶ o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy didaktik va metodik talablarni amalga oshiruvchi, umumkasbiy fanlar bo'yicha o'quv materiallarini havola etish shakllarini aks ettiruvchi hamda interfaol o'quv muloqotini ta'minlovchi yaxlit tizim sifatida o'qitishni modulli tuzilma asosida tashkil etish varianti yaratilgan;
- ▶ Visual Basic va Masromedia Flash dasturlari asosida multimediali o'qitish platformasi imkoniyatlari ochib berilgan.

Ta'lim tizimini axborotlashtirish jarayoni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarilmoqda, ya'ni o'quv jarayonini konstruksiyalash va bu jarayon barcha ishtirokchilarining o'zaro ta'sirini tashkil etish uchun o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan foydalanish masalasi muvaffaqiyotli hal etilmoqda. Ammo o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarining yangi turlarining paydo bo'lishi va mazmunining yangilanishi axborotlashtirish sharoitida o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan doimiy o'zgaruvchan talablarga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Xulosa va munozara. Shuning uchun o'qituvchilarni o'qitishning zamonaviy didaktik vositalaridan nafaqat foydalanishga, balki o'quv mashg'ulotlarini loyihalash va o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan elektron o'quv-metodik materillarni ishlab chiqishga tayyorlash zaruriyati yuzaga keldi.

Hozirgi sharoitida o'qituvchilardan quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlar talab etiladi:

- o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlargatez moslasha olish, muloqotmandlik va jamoada ishlay ishlay bilish;
- hozirgi zamon ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi bilish, yangi bilimlarni mustaqil egallay olish;



- axborot texnologiyasi va axborotlardan to'g'ri foydalana olish, telekommunikatsion vositalar yordamida zaruriy ma'lumotlarni izlab topish;
- aqliy imkoniyatlarni rivojlantirish, umumiy madaniyatini oshirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasiga oid asosiy yondashuvlar, tamoyillar, talablar, shuningdek axborotlarni tayyorlash, qayta ishlash va uzatishni bilish (kompyuter vositalaridan foydalanish madaniyati);
- kasbiy va o'quv-tarbiyaviy masalalarini yechish uchun o'qitishning har qanday didaktik vositalaridan unumli foydalanish;
- zamonaviy o'qitish vositalarini yaratish va qo'llash, axborot-ta'lim resurslarini izlash, tahlil etish va tanlash ko'nikmasini shakllantirish, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida ta'lim oluvchilar va o'qitish tizimlari o'rtasida interfaol muloqotni tashkil etish, shaxslararo muloqotga kirishish va boshqalar.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart- sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-sonli qarori. www.lex.uz.
3. Yevropa hamjamiyatlar komissiyasi. «Elektron ta'lim: ertangi kun ta'limini yaratish.»// URL: [http://europa.eu.int/ISPO/docs/policy/docs/COM\(2000\)318/en.pdf](http://europa.eu.int/ISPO/docs/policy/docs/COM(2000)318/en.pdf).
4. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. dis.- T.: 2007. - 315 b.
5. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari. Avtorefer. dis. ped. fan. dok. -T.: 2005. -44 b.
6. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning modeli uslubi. "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammolari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.- T.: 2011, 123-127 betlar.
7. Ta'lim sohasida elektron ta'lim trenajyorlaridan foydalanish muammolari va sabablari. Academic research in educational sciences, 2(2). Qosimov, S. (2021).

РЕЗЮМЕ

O'qituvchilarni zamonaviy dasturlar asosida o'qitish bugungi kunda raqamlashtirish zamonining muhim vazifasi hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu vazifani amalga oshirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati hamda uni omamlashtirishga oid mulohazalar muhokama etiladi.

РЕЗЮМЕ

Подготовка учителей на основе современных программ – важная задача сегодняшней эпохи цифровизации. В данной статье рассматривается значение зарубежного опыта в реализации данной задачи и соображения, связанные с его популяризацией.

SUMMARY

Training of teachers based on modern programs is an important task of today's digitization era. This article discusses the importance of foreign experiences in the implementation of this task and considerations related to its popularization.